

**XALQ HUNARMANDCHILIGI NAMUNALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH (ZARDO'ZLIK SAN'ATI MISOLIDA)**

**Bahronova Shaxlo Islom qizi**

*Buxoro davlat pedagogika institute “Texnologik ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi*

*e-mail: [baxronovashaxlo342@gmail.com](mailto:baxronovashaxlo342@gmail.com)*

**Rayimova Dilnavoz Dilmurodovna**

*Buxoro davlat pedagogika institute “Texnologik ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi*

**Rustamov Erkin Tohirovich**

*Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash instituti Buxoro filiali assistenti*

**Pirimova Norjona**

*Buxoro davlat pedagogika institute “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada xalq hunarmandchiligi namunalarini takomillashtirish va rivojlantirish (zardo‘zlik san‘ati misolida) ko‘rsatilgan. Yurtimizda zardo‘zlik san‘atini rivojlantirishda zardo‘zlik maktablari, zardo‘zlik festevallari, ustoz shogird ananalari va ularga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirish masalalari haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *Hunarmandchilik, zardo‘zlik maktabi, zardo‘zlik festivali, umum rossiya amaliy san‘at muzey, zardo‘zlik usta xonasi, zardo‘zlik uyishmasi.*

**IMPROVEMENT AND DEVELOPMENT OF SAMPLES OF FOLK CRAFTS (ON THE EXAMPLE OF THE ART OF ZOROASTRIANISM)**

**Bahronova Shahlo Islom qizi**

*Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department “technological education”*

*e-mail: [baxronovashaxlo342@gmail.com](mailto:baxronovashaxlo342@gmail.com)*

**Rayimova Dilnavoz Dilmurodovna**

*Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department “technological education”*

**Rustamov Erkin Tohirovich**

*Tashkent irrigation and agriculture assistant  
of Bukhara branch of the Institute of mechanization*

**Pirimova Norjona**



*Bukhara State Pedagogical Institute Student of the direction” technological education”*

**Annotation:** *this article shows the improvement and development of samples of folk crafts (on the example of the art of Zoroastrianism). In the development of the art of Zoroastrianism in our country, brief information is given about the schools of Zoroastrianism, the festivals of Zoroastrianism, the traditions of the master disciple and the issues of increasing attention to them.*

**Base words:** *crafts, School of Zoroastrianism, Zoroastrianism festival, All-Russian Museum of Applied Arts, Master's room of Zoroastrianism, Zoroastrianism.*

**Kirish.** Yer yuzidagi har bir millatning o'zligini madaniyatini aks etib turadigan va manashu madaniyati bilan bir-biridan farqlanib turadigan hunarmandchilik san'ati bor. Ma'naviy qadriyatlarga hurmat-eh'tirom bilan munosabatda bo'lish ularni asrab avaylash, rivojlantirish va hunarmandchilikni bebaho tarixiy merosini tiklash, davlat siyosati darajasiga ko'tarishni 1997-yil O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'lab quvatlash to'g'risida"gi PF-5242 Farmonida ham xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ulanuvchilarni qo'llab quvatlash shu asosida yoshlar va kam taminlangan ayollar bandligini taminlash maqsadida hunarmandchilik sohasida bajarilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy va muhim turlaridan biri hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san'atning ko'plab sohalari bilan uyg'unlashib ketadi. Respublikamizda mavjud bo'lgan xalq hunarmandchiligining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xiva, Termiz, Urganch, Namangan, Andijon, Farg'ona, Chust, Shahrisabz va boshqa markazlarining ta'limiy tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos bo'lib o'ziga xosligi jihatdan bir-biridan ajralib turadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov farmoni bilan hunarmandlarni besh yil moboynda daromad solig'i, Respublikadan tashqarida sotganligi uchun bojxona boji to'lashdan ozod qilindi. "O'zbekiston xalq ustasi" unvoni tasis qilindi. Shuningdek ushbu farmon asosida "Musavvir" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi xuziridagi "Hunarmand" O'zbekiston xalq ustalari uyushmasini tuzish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Bugun Respublikamizning barcha viloyatlarida mazkur tuzilmalarning tarmoqlari faoliyat ko'rsatmoqda. Har bir hunar turlarining ustoz shogird anannalari asosidagi maktablari paydo bo'la boshladi .



Zardo'zlik maktablarining paydo bo'lishi: Buxoro zardo'lik maktablarining mohir zardo'z va rassomi B. Jumayev, O. Tosheva, M. Habibova, N. Ergashova, R.Yunusova, N.Sadullayevalar anashu maktab anannalarini taraqqiy etishiga hissa qo'shdi. Samarqanda ham zardo'zlik maktablari bo'lib M.Faxriyeva, M. Muxiddinova. Jizaxlik zardo'lar S. Sarimsoqova, G. Bozorovalar zardo'zlik maktablarini rivojlantirishga katta xissa qo'shib kelmoqdalar.

Zardo'zlik sanatini takomilashtirish nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish balki xotin - qizlarni hunarli qilish uy turistik mehmonxomalarni ochib o'zlari tayyorlagan zardo'zlik buyumlarini chet el mehmonlariga sog'a qilib zardo'zlik san'atini chet davlatlarga chiqarish ham manaviy, ham moddiy va iqtisodiy foyda keitiradi. Qadimiy zardo'zlik san'atini kelajak avlodlarga yetkazish va yanada rivojlantirish, yurtimizning har bir chekka joylariga yetib borishi

millatimiz milliyligini asrab qolishimiz uchun har bir viloyat, tuman, qishloqlarda zardo'zlik maktablari faoliyatini yo'lga qo'yishimiz, zardo'zlik haqida yozilgan usta hunarmandlar kitoblarini keng ko'lamda, turli tillarda chop etirib maktablarda, kasb-hunar texnikumlara, kutubxonalarga tarqatish lozim. Viloyatlarimizda zardo'zlik san'atiga oid ko'plab festivallar va tanlovlar, tadbirlar har yili doymiy o'tkazib borish, usta hunarmandlarni taqdirlash, zardo'zlik san'atiga oid liboslar hozirgi zamonaviy moda bilan uyg'unlashtirgan dizaynni yaratish bo'yicha dizaynerlar uchun modalar uylarini tashkil qilish va podumlar o'tkazishni yo'lga qo'yish, yurtimiz hunarmanchiligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Yuqoridagi fikrlarning tahlili sifatida Buxorolik taniqli zardo'z "Shuhrat" medali sohibi Baxshillo Jumayev shu sohada salkam qirq besh yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan va oylaviy ishlab butun boshli zardo'zlik maktabini yaratgan usta ko'pyillik tajribasiga tayanib "Zardo'zlik son'ata" deb nomlangan kitob yozdi. Buxoroda Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivali dasturida ushbu kitob taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Bu kitob zardo'zlik tarixi necha ming yilga borib taqalishini, ajdodlarimiz bu san'atni ko' qorachig'dek asrab avaylab bizga meros qilib qoldirishgani, u kishidan izlanish, o'qib o'rganish, nozik did, sabir toqat talab qilishini aytib o'tgan. Buxoroga xos uslublarni, tarixi, zardo'zlik ananalarini batavsil ochib berishga baholi qudrat so'z yurutgan usta hunarmandimiz Jumayev Baxshillo ota. Bu san'atga mehri qo'ygan boshlovchi zardo'zlarga qo'l keladi. Xususan xalq amaliy san'ati ixlosmandlarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda as qotaqi. Maskovadagi qo'li gul o'zbek ustalari hamda serquyosh o'lka O'zbekistonga qilgan safaridan ilhomlanib o'z ijot mahsullarini yaratgan mohir rus hunarmandlarining eng sara ekispozitsiyalari Moskovadagi umum Rossiya amaliy san'at muzeyida o'tkazilgan "O'zbekiston madaniy meros xazinalari" ko'rgazmasida namoyish etilgan. Maskovadagi umum Rossiya bezak va amaliy san'at muzeyida Tretyakovna galeriyasi ishtirokida tayyorlangan "O'zbekiston madaniy meros xazinalari" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Tashkilotchilar takidlashiga qaraganda ko'rgazmaning o'zbek milliy matolariga bag'ishlangan bo'limida Buxoro zardo'zlarining mohir qo'llari bilan yaratilgan nafis buyumlari kishilarni mahliyo qilib qo'ygan. Bunga misol sifatida muzeyning matolar bo'yicha boshlig'i Svetlana Isroyilova o'zbek hunarmanchiligi haqida "Buyerda namoyish etilgan matolar, umuman barcha bezatilgan liboslar butun ekispozitsiyaga takrorlanmas kolorid baxsh etdi.



Biz O‘zbekiston haqida eslaganda betakror memorchilik yodgorliklardan tashqari, yorqin va rang barang kiyimlarni va ushbu kiyimlardagi odamlarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Biz o‘z ko‘rgazmamizda o‘zbek mato yaratuvchi, zardo‘z va zar do‘ppido‘z chevarlarni erishgan mukammallik va barkamollik darajasini ko‘rsatishga harakat qildik. Biz o‘z ko‘gazmamizda hayratomus naqishlar bilan bezatilgan zar “so‘zana”larni ham namoyish qildik, o‘ylaymizki ular barcha san‘at asari muhlislariga mazur bo‘ldi” deb aytib o‘tdi. Natija qilganda shuni takidlash kerakki butun dunyoda zardo‘zlik sanati vatani deya e‘tirof etilgan Buxoroda shu vaqtga qadar ushbu hunar turiga bag‘ishlangan markazlar yo‘q edi. Ayni vaqtda viloyatda 120 nafardan ortiq zardo‘z ustalar faoliyat yuritayotgan bo‘lib ularning san‘at asarlari chet el hunarmandlari tomonidan e‘tirof etilmoqda. Zardo‘zlik maktabi vakili No‘mon Aminov tilla, nuqra, ipak zarlari yordamida porteretlar yaratgan va ko‘plab shogirt chiqarganlar. Zardo‘z Mahfuza Salimova tomonidan tashkil etilgan zardo‘zlik ustaxonasida 60 nafar usta zardo‘z va 40 nafar shogirtlar ishlab doyimiy ish bilan taminlangan. Bularning bari qadimiy hunarmandchilik tarixini tadbiq etish unutilib borayotgan zardo‘zlik turlarini, tikilish usulublarini qayta tiklash hamda ilmiy asosda o‘rganishda juda katta tashabbus ko‘rsatmoqdalar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Xalq hunarmandchiligi va badiy loyihalash” kitobi
2. Usta hunarmand Jumayev Bahshelloning “Zardo‘zlik san‘ati” Kitobi
3. “Xalq so‘zi” gazetasi
4. Elektiron resuslar.
5. Жўраев А. Р., Сайфуллаева Д. А., Бахронова Ш. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ҚИЛИНАДИГАН ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 169-176.
6. D.A. Sayfullayev., S. Qahhorov., «Problems of modern science and education», Москва, 2020- г. 12 (157),С 33-35.
7. D.A.Sayfullayeva., Sh.I. Bahronova., “Tafakkur va talqin” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to‘plami - Buxoro. 2021, 20-noyabr. 1604-1607.
8. D.A.Sayfullayeva., Sh.I. Bahronova., “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” 2021-yil dekabr № 7. 213-224.
9. D.A.Sayfullayeva., Sh.I. Bahronova., «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. -2022.- Т. 1. №. 8. -С. 230-238.